

Ish joyida tazyiq va zo'rvonlikka qarshi yangi tizim: murojaat endi nazorat ostida bo'ladi

// 23.09.2026

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/ish-joyida-tazyiq-va-zo-ravonlikka-qarshi-yangi-tizim-muroja>



21-sentabr kuni “Mehnat sohasida xavfsiz va hurmatga asoslangan ish muhitini ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida” Prezident qarori qabul qilindi. Hujjat bilan ish joyida tazyiq, zo’rvonlik, shahvoniy shilqimlik, ruhiy bosim, ta’qib va kamsitishning oldini olish, murojaatlarni xolis ko’rib chiqish va bunday holatlarni yashirishga yo’l qo’ymaslik bo’yicha yaxlit tizim joriy etilmoqda.

Raqamli tizim qachondan ishlaydi?

2026-yil 1-dekabrgacha “Xavfsiz va hurmatga asoslangan ish muhiti” axborot portali ishga tushiriladi. U orqali tazyiq va zo’rvonlik holatlari bo’yicha murojaatlar onlayn qabul qilinadi,

murojaatlarni ko'rib chiqish, dalillarni yig'ish, xulosa tayyorlash va tekshiruv natijalarini nazorat qilish jarayonlari raqamlashtiriladi.

Eng muhim kafolatlar

- **Murojaat qilgan xodimning shaxsiy ma'lumotlari himoya qilinadi.** Bunday ma'lumotlarning qonunchilikda nazarda tutilmagan hollarda oshkor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.
- **Rahbar ustidan murojaat tushsa, masala yuqori turuvchi instansiyaga avtomatik yo'naltiriladi.** Bu manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga xizmat qiladi.
- **Murojaat uchun bosim o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.**
- **Qaror materiallarida xodim o'z huquqlarini himoya qilgani uchun uning ish sharoitlarini yomonlashtirish yoki jazolashga yo'l qo'yilmasligi alohida ta'kidlangan.**

Zarur holatlarda "112" orqali vakolatli organlarga yuborish mexanizmi ham tizimga integratsiya qilinadi.

Bu faqat shikoyat tizimi emas

Qarorning asosiy mazmuni bitta: ish joyidagi tazyiq yoki zo'ravonlikni yashirish emas, uni xavfsiz bildirish, xolis ko'rib chiqish va natijasini nazorat qilishning aniq mexanizmi yaratilmoqda.